

**IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISHDA ISHLAB CHIQRISH KORXONALARINING
INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI**

Xalliyeva N.R.

BuxMTI, "Menejment" kafedresi, PhD

Bibutova S.N.

BuxMTI, M51-23MNT guruhi magistranti

Annotatsiya: *Investitsiyalarning mavjudligi va yetarli darajadaliqi iqtisodiyot rivojlanishini asosiy shartidir. O'zbekistonning kelajakda rivojlanishining asosiy omillaridan biri – bu jalb etilgan va samarali o'zlashtirilgan investitsion resurslar miqdori hisoblanadi. Ushbu maqolada O'zbekistonning investitsion salohiyatini oshirish masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, iqtisodiy o'sishni ta'minlash, korxonalarda investitsion faoliyatni boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari tahlil qilingan. Shuningdek, mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va oqilona foydalanishga imkon beruvchi xo'jalik mexanizmini shakllantirish masalalari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *mintaqaviy iqtisodiyot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, mintaqaning investitsion jozibadorligi, raqamli iqtisodiyot, xorijiy investitsiya, investitsion loyiha.*

O'zbekistonda investitsion faoliyatni boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari asosida mamlakatimiz investitsion jozibadorligi uchun keng ko'lamda ishlar bajarilmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotiga chet el investorlarni jalb etish uchun qulay [shart sharoitlar yaratish](#), ularni huquqiy himoya qilishning amaliy mexanizmlarini joriy etish va investitsion muhitni yanada yaxshilash iqtisodiy rivojlanish sohasidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston iqtisodiyoti bugun jahon iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylandi. Mamlakatimiz eksport salohiyati yildan-yilga oshmoqda, tashqi bozorga xom-ashyo emas, yuqori qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlar yetkazib berilmoqda.

Aytish kerakki, O'zbekiston ulkan xorijiy investitsiyalar yo'naltirilayotgan mamlakatlar guruhiga kirish uchun barcha shart-sharoitlarga, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun bir qator qulayliklarga ega. O'zbekiston jahon xamjamiyati oldida o'zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, dunyo haritasidagi geografik joylashishi, tabiiy resurslarning tarkibi va zahirasi, hukumat olib borayotgan iqtisodiy siyosat va boshqalar bilan muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi kunda O'zbekistonning investitsion salohiyatini oshirish masalasiga iqtisodiy o'sishni ta'minlash nuqtai nazaridan katta e'tibor qaratilmoqda. Investitsiyalarning mavjudligi va yetarli darajadaliği – iqtisodiyot rivojlanishini asosiy shartidir. O'zbekistonning kelajakda rivojlanishining asosiy omillaridan biri – bu jalb etilgan va samarali o'zlashtirilgan investitsion resurslar miqdori hisoblanadi. Mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va oqilona foydalanishga imkon beruvchi xo'jalik mexanizmini shakllantirish, hamda investitsion jarayonlarni boshqarishni takomillashtirish – bu davlatimizning eng asosiy strategik vazifalaridan biridir.

O'zbekistonda mustaqillik yillari davrida olib borilgan iqtisodiy islohatlar tufayli qulay investitsion sharoitlar yaratilgan. Mamlakatda kapital investitsiyalarning kengayishiga katta e'tibor berilmoqda, ya'ni asosiy kapitalni qaytadan ishlab chiqarishga yo'naltirishdir.

Bugungi investitsion siyosat kredit qo'yilmalarni jalb etishni ko'paytirishga qaratilgan bo'lib qolmay, balki to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarga qaratilgandir. Ular xususiy sektor faotiyatini aktivlashtiradilar, tashqi bozorga chiqish imkoniyatlarini [kengaytiradilar](#), yangi texnologiyalar va zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalanishni yengillashtiradilar.

O'zbekiston bozoriga to'g'ridan – to'g'ri chet el investitsiyalarni yanada jalb etish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- xorijiy investorlar faotiyati uchun yaratilgan sharoitlarni chuqur va tanqidiy o'rganib chiqish;
- to'g'ridan – to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora – [tadbirlarni amalga oshirish](#);
- qimmatli qog'ozlar bozori infratuzilmasining ishonchliligini oshirish;
- yirik ishlab chiqarish korxonalarini qimmatbaho qog'ozlarini birlashmalar, investitsion fondlar, kompaniyalar, banklar ishtirokida xalqaro fond bozorlarida joylashtirish va hokazo.

Shu bilan birga O'zbekistonda banklar faotiyat yuritish tartibini qayta ishlab chiqish kerak va banklarga investitsion faotiyatni kengaytirish bo'yicha masalalarni yuklash zarur. Birinchi navbatda investitsion loyihalarni moliyalashtirishni tashkil qilish va ekspertiza qilish bilan shug'ullanadigan tijorat banklarining maxsus bo'limlarini kuchaytirish kerak. Tijorat banklari rahbarlari investitsion siyosat olib borish mexanizmini yanada chuqur o'rganishlari zarur. Banklar investitsion jarayonlarining yanada faolroq ishtirikchilari bo'lib qolishlari kerak.

Investitsion siyosatni jadal olib borilishi nafaqat iqtisodiy o'sish va tizimni isloh qilishning muhim omillari, balki sherikchilik aloqalarini o'rnatish, ishbilarmon doiralar bilan hamkorlik qilish, turli moliyaviy institutlar bilan

aloqalar o'rnatish va davlatlararo aloqalar samaradorligini oshirishga erishishdir. Biz bilamizki, investitsiya iqtisodiy o'sish omili sifatida moliyaviy – iqtisodiy rivojlanish uchun muhim dastaklardan biri bo'lib hisoblanadi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, O'zbekistonda investitsiya kiritish jarayonlari tezlashishi uchun qulay imkoniyatlar yaratilmoqda. O'zbekiston [iqtisodiyoti yanada kuchliroq](#), barqarorlashgan, jahon bozorida o'z mustahkam o'rniga ega bo'lmoqda, buning asosi esa doimiy dinamik o'sishdir.

Hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularni huquqiy himoya qilishning amaliy mexanizmlarini joriy etish va investitsion muhitni yanada yaxshilash iqtisodiy rivojlanish sohasidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston respublikasi investitsiya siyosati xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun yanada qulay shart-sharoitlarni ta'minlash, xorijiy investitsiyalarni ishonchli huquqiy himoya qilishning amaliy mexanizmi barpo etish, mana shu asosda mamlakatdagi investitsiya muhitini yanada yaxshilashda MDH mamlakatlari orasida yetakchi hisoblanadi.

Chet ellik investorlar O'zbekiston Respublikasi hududida investitsiyalarni quyidagi yo'llar bilan amalga oshirishlari mumkin:

- O'zbekiston Respublikasining yuridik va (yoki) jismoniy shaxslari bilan birgalikda tashkil etilgan xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarining, banklar, sug'urta tashkilotlari va boshqa korxonalarining ustav jamg'armalarida va boshqa mol-mulkida ulush qo'shib qatnashish;

- chet ellik investorlarga to'liq qarashli bo'lgan xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarini, banklar, sug'urta tashkilotlari va boshqa korxonalarni barpo etish va rivojlantirish;

- [mol-mulk](#), aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olish;

- intellektual mulkka, shu jumladan mualliflik huquqlari, patentlar, tovar belgilari, foydali modellar, sanoat namunalari, firma nomlari va nou-xauga, shuningdek ishchanlik nufuziga (gudvillga) [huquqlar kiritish](#);

- konsessiyalar, shu jumladan tabiiy resurslarni qidirish, ishlab chiqish, qazib olish yoki ulardan foydalanishga bo'lgan konsessiyalar olish;

- savdo va xizmat ko'rsatish sohalari ob'ektlariga, turar joy binolariga ular joylashgan yer uchastkalari bilan birgalikda mulk huquqini, shuningdek yerga egalik qilish va undan foydalanish (shu jumladan ijara asosida foydalanish) hamda tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqlarini sotib olish;

- mahsulot taqsimotiga oid bitimlarga muvofiq yer qa'ri uchastkalarida konlarni aniqlash, qidirish hamda foydali qazilmalarni kavlab olish huquqini olish orqali.

Bugungi kunda salohiyatli xorijiy investorlar investitsiya kiritishning quyidagi turli shakllarini taklif qilmoqdalar:

Hamkorlikda qo'shma korxonalar tashkil etish;

- 100 % xorijiy kapital [asosida korxonalar tashkil etish](#);

- Xususiy lashtirilayotgan korxonalar aksiya paketlarini bir qismi yoki yarmini sotib olish.

Xorijiy investitsiya asosida tashkil etiladigan korxonalar uchun quyidagi shartlar qo'yiladi:

- Ustav fondida eng kamida 150 ming AQSh dollariga teng mablag'ning bo'lishi;

- Korxonalar tashkilotchilaridan biri xorijiy yuridik shaxs bo'lishi lozim;

- Korxonalar ustav fondidagi mablag'ning eng kamida 30 %i xorijiy investitsiya ulushi bo'lishi lozim.

"O'zbekiston Respublikasining 2025 yilgacha investitsiya siyosati strategiyasi" O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi tomonidan xalqaro tajriba, respublika iqtisodiyoti, uning tarmoqlari va hududlari investitsiya jarayonlari rivojlanishidagi tendensiyalar va muammolar tahlili asosida tayyorlangan.

2025 yilgacha investitsiya siyosatining maqsadi iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va muvozanatini oshirish, ishlab chiqarish va eksport salohiyatini rivojlantirish, hududlarni rivojlantirish va aholi farovonligini oshirish hisoblanadi.

Strategiyaning asosiy vazifalari uchta asosiy yo'nalish bo'yicha: investitsiya muhitini yaxshilash, ichki investitsiya manbalarini kengaytirish va investitsiya manbalarining samaradorligini oshirish, samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning yangi yondashuvlarini ishlab chiqish aniqlangan.

2025 yilgacha investitsiyalarning asosiy manbalari to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik, davlat investitsiyalari va korporativ qimmatli qog'ozlar sarmoyalari bo'ladi. 2019-2025 yillarda amalga oshirilayotgan hamda istiqbolli yangi investitsiya loyihalari doirasida 1002,5 milliard so'mdan ortiq markazlashtirilmagan investitsiyalarni o'zlashtirishi ko'zda tutimoqda. [Shuningdek](#), yaqin 30 foizi korxonalar uchun o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

Investitsion siyosat strategiyasining amalga oshirilishining natijasi respublikaning hududiy va sanoat rivojlanishini har tomonlama ta'minlash, shuningdek mahsulotlarning xom ashyodan tayyor mahsulotgacha bo'lgan qiymat zanjirlarini shakllantirish, mavjudlarini mustahkamlash va yangi

hududlararo va tarmoqlararo aloqalarni shakllantirish, sohalar, hududlar, davlat organlari va xususiy biznes o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish bo'ladi.

So'nggi vaqtlarda iqtisodiyotni rivojlantirish masalasi eng muhim va dolzarb masala bo'lib borayotganligini kuzatishimiz mumkin. Chunki mamlakatdagi barcha sohalarni rivojlantirish asosida iqtisodiyotni rivojlantirish yotadi. Qachonki, mamlakatda iqtisodiyot rivojlansagina, boshqa sohalarda rivojlanish va o'sish sur'atlariga erishish mumkin. Iqtisodiyotning rivojlanishiga esa bir qancha omillar ta'sir qiladi. Bular ichida iqtisodiyotning rivojiga juda ijobiy ta'sir qiladigan omil bu investitsiyalar hisoblanadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tabiri bilan aytganda: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya - bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanad". Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqadaigan bo'lsak, iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarning ahamiyati katta hisoblanadi. Faol investitsiya siyosati asosida mamlakat iqtisodiyotini jadal rivojlantirish mumkin. Investitsiyalarni iqtisodiyotga faol jalb qilish uchun esa eng avvalo mamlakatda shakllangan investitsion muhit bo'lishi talab etiladi.

Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmini yanda oshirish talab etiladi. Buning uchun yanada qulay investitsion muhitni shakllantirish talab etiladi. Hozirgi kunda qulay investitsion muhitni shakllantirishning eng asosiy yo'nalishi bu raqamli iqtisodiyot hisoblanadi. Hozirgi kunda qaysi mamlakatda raqamli iqtisodiyot darajasi yuqori bo'lsa, shu mamlakatda qulay investitsion muhit shakllangan hisoblanadi.

Investitsiya qarorini qabul qilishning eng umumiy mezonlaridan biri investitsiya muhitini makro darajada baholash va investitsiya obyektining investitsion jozibadorligidir. Investitsiya muhiti va investitsion jozibadorligi ko'pincha iqtisodiy adabiyotlarda sinonimlar sifatida talqin etiladi. Birinchi kontseptsiya kengroq. Bu mamlakat, mintaqqa, iqtisodiy mintaqqa, sanoatdagi investitsion muhitning asosiy xarakteristikasidir. Faqat investitsiya muhitining reyting bahosini hisobga olgan holda, investor uchun muayyan obyekt yoki investitsiya loyihasining investitsion jozibadorligini baholashga o'tish tavsiya etiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining yuqori darajada bo'lishi nafaqat investitsiyalarni jalb etishga ko'maklashuvchi omil, balki mamlakatlarning makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga ham bevosita ta'sir

ko'rsatadi. Maqolada keltirilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish davlat xarajatlarini optimallashtirishi, YalMga, xalqaro savdo ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi hamda ishsizlik darajasini kamaytirishi mumkin. Davlatning investitsiya sohasidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari investitsiya portallari doirasida alohida rivojlanishga ega bo'ldi. Xalqaro amaliyotga xos bo'lib, investitsion portal investorlar bilan faol muloqot va ma'lumotlar almashish vositasi bo'lib, investitsion salohiyatni dastlabki baholashga ta'sir ko'rsatish va investitsion hamkorlik bo'yicha qarorlar qabul qilishga qodir.

Mamlakat va uning hududlarida investitsiya muhitini yaxshilashning eng muhim yo'nalishlari ehtiyojni o'z ichiga oladi:

- kreditlar va investitsiyalar talab hajmining oqilona birlashmasidan va nisbati, iqtisodiyotning ishlab chiqarish sektoriga moliyaviy resurslarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan umumiy miqdorda ikkinchisi ulushini bosqichma-bosqich oshirish imkonini beradi, uning qayta qurish asosida moliyaviy resurslarga mintaqaviy talabni shakllantirish;

- bozor kapitalizatsiyasi past bo'lgan korxonalarda, ayniqsa, ishlab chiqarishni rivojlantirishda, birinchi navbatda, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rish;

- sud amaliyotida izchil qo'llanilayotgan va ma'muriy-iqtisodiy darajada qat'iy amalga oshirilayotgan ishlab chiqarishni boshqarish uchun, xususan, investor, Aksiyalar egasi huquqlarini himoya qilishni ta'minlaydigan federal va mintaqaviy qonunchilikni ishlab chiqish va qabul qilish;

- mamlakat investitsiya bozori infratuzilmasi va Federatsiyaning ta'sis obyektlarini rivojlantirish;

- to'liq faoliyat yurituvchi fond bozorini tashkil etish;

- iqtisodiyotning ishlab chiqarish sohasida tadbirkorlik subyektlariga soliq yukini kamaytirish;

- jahon va ichki savdo bozorlariga chiqish imkoniyatlarining marketing tahlili.

Iqtisodiyotda progressiv tarkibiy o'zgarishlar va mahsulot raqobatbardoshligining o'sishi samarali innovatsiya siyosatisiz mumkin emas. Shunday qilib, yuqori texnologiyali mahsulotlar uchun jahon bozorlariga kirishni ta'minlash uchun mahalliy korxonalar tomonidan to'plangan ilmiy-texnik salohiyatni jadal rivojlantirish muammosini hal qilish juda muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasi. 2020-yil, 26-yanvar.
2. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni. 2019-yil, 9-dekabr.
3. "O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni. 2019-yil, 9-dekabr.
4. Sh.SH. Shodmonov, U.V.G'afurov, "Iqtisodiyot nazariyasi" , T.: - "Fan va texnologiya", 2009 yil
5. Турсунов Б.М. Внешнеэкономическая деятельность и привлечение иностранных инвестиций. Курс лекций. -Т.: «Узбекистан», 2008. с.-45
6. Худайбердиева О. К. ЭКОНОМИЧЕСКИЕ РЕФОРМЫ СФЕРЫ УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНЕ//АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ И РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ. – 2021. – С. 216-220.
7. Худайбердиева О. К. ИННОВАЦИИ И НАУЧНЫЙ ПРОГРЕСС– ФУНДАМЕНТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ //ББК 65.0501 А 43. – 2022. – С. 331.
8. *Xalliyeva N.R. "Turizm sohasini rivojlantirishda aholi bandligini ta'minlash nazariyasi va amaliyoti" Monografiya.Turon nashriyoti, Toshkent 2023yil.*
9. Khallyeva N.R. "Ways to increase the role of tourism in employment in Uzbekistan. The case of Bukhara." International Scientific Journal Theoretical & Applied Science, 21.02.2022, Philadelphia, USA. P523-530. <http://T-Science.org>